

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO'MITASI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

MFO'M fanidan

KURS ISHI

Mavzu: “Internet tamoyillari ” fanini pedagogik va axborot
texnologiyalari yordamida o`qitish metodikasi.

Guruh: 250-11

Bajardi: Sattorova Nilufar

Rahbar: Salihova Muhayyo

Toshkent-2014.

MUNDARIJA

KIRISH	3
---------------------	----------

I.BOB. INTERNET TEXNOLOGIYALARINING TA'LIM JARAYONIDAGI TUTGAN O'RNI

1.1. Internet texnologiyalari ta'lim mazmunini boyitish omili sifatida.....	5
1.2. O'quv jarayoniga internet texnologiyalari va internet tarmog'ini joriy etishning dolzarbligi.....	8
1.3." Internet texnologiyalari " fani orqali ta'lim portallarini yaratish	15

II.BOB. INTERNET TEXNOLOGIYALARI FANIDAN "INTERNET TARMOG'I ORQALI KO'RSATILADIGAN INTERAKTIV XIZMAT TURLARI HAMDA INTERNET TARMOG'INING IMKONIYATLARI " MAVZUSINI O'QITISH METODIKASI

2.1. O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi	20
2.2. "Internet texnologiyalari" fanidan amaliy mashg'ulotni tashkil etish metodikasi	21
2.3. "Java Script" dasturida elektron saytlar yaratishning amaliy ko'nikmalarini ishlab chiqish va o'qitish metodikasi	25

XULOSA	28
---------------------	-----------

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR	29
--------------------------------------	-----------

KIRISH

Zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarinin iqtisodiyot, fan va talimning barcha soxalariga keng joriy etish, xalqaro axborot tizimlariga, shu jumladan «Internet» tarmog'iga kirib borishni kengaytirish, yuqori malakali dasturchilar tayyorlash darajasini oshirish masalasi yo'nalishlaridan biri xisoblanadi.

Internet quyidagi imkoniyatlari bilan afzaldir, bu axborotga ega bo'lish, yangiliklar bilan tanishish, bilimga ega bo'lish, o'qish, ilg'or texnologiyalar va tajribalar bilan tanishish, ish munosabatlarini tezda xal qilish, istemolchining talabi va muammolarini bilish, maxsulot baxosini nazorat qilish imkoniyatlaridir. Uning yordamida malumotlar uzatish, qabul qilish, boshqarish va tasvirlash mumkin.

Xozirgi kunda sanoatning barcha soxalarida reklama asosiy rolni o'ynamoqda. Internet esa bu yo'lda asosiy vosita bo'lib xizmat qilyapti. Internet orqali reklama qilish uchun tashkilot va muassasalarning web saxifasini yaratish kerak bo'ladi.

Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomondan, fan-texnikaning yangi soha va bo'limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda.

Bunday sharoitda, yuqori malakali pedagog kadrlarga bo'lgan talablar ortib borib, barkamol avlodni asrlar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega, fanning fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo'lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakasini puxta o'zlashtirgan ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi.

Bu kabi vazifalarni bajarish kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning bosqichlarida belgilab berilgan bo'lib, uning kelajakdagi istiqboli ilmiy asoslab berilgan. Dasturni amaliyotga joriy etish o'quv jarayonini

texnologiyalashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Ilmiy texnikaviy taraqqiyot ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlari bilan bir qatorda ta'lim sohasiga ham zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda. Shu boisdan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida "o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlash" zarurati e'tirof etildi, uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalardan biri sifatida belgilandi".

Mamlakatimizda ta'lim sohasida ro'y berayotgan tub yangilanishlar har bir ta'lim muassasasida o'quv jarayoni metodik ta'minotini rivojlantirishni talab etadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yaqin yillar ichida pedagogik innovatsiyalarning asosiy manbai bo'lib qoladi.

Ta'lim oluvchilar uchun mustaqil bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ta'limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun tegishli sharoitlarni yaratish ta'lim mazmunini takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri sanaladi.

2004-yil 24-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tomonidan „Elektron hujjat aylanishi to'g'risida“ gi qonuni qabul qilindi.

2005-yil 2-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida“gi qarori qabul qilindi.

2006-yil 20-iyund O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Respublika axolsini axborot –kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida“gi qarori qabul qilindi.

2007-yil 17-dekabrda Vazirlar Mahkamasining „Internet tarmoqlari O'zbekiston Respublikasi hukumat portalini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi qarori qabul qilindi.

2013-yil 16-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish markazi faoliyatini va O'zbekiston Respublikasi Milliy aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari qo'mitasi qoshida axborot xavfsizligini ta'minlash markazini tashkillashtirish bo'yicha” qarori qabul qilindi.

I.BOB. INTERNET TEXNOLOGIYALARINING TA'LIM JARAYONIDAGI TUTGAN O'RNI

1.1 Internet texnologiyalari ta'lim mazmunini boyitish omili sifatida

Internetning WWW xizmati kundan-kunga rivojlanib, mukammal ma'lumotlar manbasiga aylanib bormoqda. Uning yordamida istalgan soxada, istalgan mavzuda va istalgan vaqtda ma'lumotlarni qidirib topish, ulardan foydalanish, zarur bo'lsa ulardan nusxa olish mumkin. Internetning ushbu xizmat turidan foydalanish uchun avvalo mijoz kompyuterida xuddi shunday imkoniyatlarni yaratib beruvchi maxsus dastur ta'minoti bo'lishi zarur. Bunday dastur ta'minoti brauzer (Browsers) deb ataladi.

Eng birinchi brauzer CERN (Evropa Fizika Tadqiqotlari Markazi) xodimi Tim Berner tomonidan kashf qilingan. AQSHning NSCA (Milliy Super Xisoblash Markazi) xodimi mark Andrisson va bir nechta talabalar tomonidan ishlab chiqilgan Mosaic brauzeri esa grafik ma'lumotlarni ekranda aks ettira oluvchi birinchi brauzer bo'lgan.

Brauzer inglizcha so'z bo'lib, ko'rinishni ta'minlash, ko'rsatish ma'nosini anglatadi. Dunyoda eng ko'p foydalaniladigan brauzerlar Netscape Communication Navigator va Internet Explorer lar xisoblanadi.

Bugungi kunda Netscape xamda Internet Explorer dan tashqari yana ko'plab Opera, FmSD Friada, mSICE, Web celerator, AtGuard, AdWiper kabi brauzerlar mavjuddir. Brauzerlarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri, bu internetning WWW xizmatidagi ma'lumotlar joylashgan web saxifalarini qaysi texnologiya yordamida ishlashidan, xamda qaysi dasturlash tilida yozilganidan qat'iy nazar, undan to'liq foydalanish imkoniyatlarini yaratib berishdir. Bu talabga xamma baruzerlar xam javob bera olmaydi. Bunga misol qilib Netscape Communicator ning microsoft kompaniyasining VisualBasic Script tili qo'llanilgan web saxifalarni ekranda aks ettira olmasligini keltirish mumkin.

Internet Explorer brauzeri esa ixtiyoriy web saxifani xech qanday muammolarsiz ko'rish va undan to'liq foydalanish imkoniyatini yaratib beradi.

Opera brauzerining muxlislari esa uni juda ixcham xajmda ekanligi uchun yaxshi ko`rishadi. Chunki bu brauzer kompyuter tashqi xotirasidan atigi 2 mb gina joyni egallaydi xolos. Uning juda xam tezkor ishlashi va ko`plab Netscape ishlaydigan PlugIn lar macromedia Flash, Acrobat Reader, Cosmo Player larni o`zida aks ettira olishi unga bo`lgan qiziqishga sabab bo`lmoqda.

Shaxsiy elektron xisoblash mashinalarida formatlashtirilgan elektron xujjat WYSIWYG (What You See Is What You Get) «Nimani ko`rayotgan bo`lsang, o`shani olasan» prinsipida ishlaydigan matn taxrirlagichlar yordamida yaratiladi. masalan MS Word, Lexicon, AmiPro kabilar yordamida.

Bunday dasturlar yordamida biz elektron xujjatni xoxlagan shriftda, o`lchamda, chap yoki o`ng tomondan tekislagan xolda yaratishimiz mumkin. Ammo biz ushbu elektron xujjatni internet yordamida e`lon qila olmaymiz. Sababi, uni o`qimoqchi bo`lgan boshqa bir internet mijozining shaxsiy kompyuterida biz foydalangan matn taxrirlagich dasturi yoki shriftlar o`rnatilmagan bo`lishi mumkin. Buni oldindan aytib bo`lmaydi. Undan tashqari ushbu matnni ochishga mo`ljallangan «oyna»ning o`lchamlari xaqida xech qanday ma`lumotlarga ega emasmiz. Shuning uchun xam SHEXmlarda foydalaniladigan matn taxrirlagichlar va ularning «format»lash usullaridan internetda foydalanib bo`lmaydi.

Bunday noqulayliklarning oldini olish maqsadida yangi HTML (Hyper Text markup Language) «gipermatnlarni belgilash tili» protokoli, standarti yaratildi. Bu standart bir qancha maxsus operatorlar majmuasidan iborat bo`lgan HTML dasturlashtirish tili bo`lib, uning yordamida elektron xujjatlarni internetda bevosita e`lon qilish mumkin.

Protokol – bu kompyuterlar orasidagi aloqa o`rnatilishida, ma`lumotlarni qabul qilishi va uzatishda foydalaniladigan signallar standartidir. Ya`ni, kompyuterlar protokol yordamida bir-biri bilan bog`lanadi. Protokol to`g`ri bo`lsagina, kompyuterlar o`rtasida aloqa o`rnatiladi. Bu kompyuterlarning bog`lanish tartibi yoki standartidir.

HTTP (Hyper Text Transfer Protocol) esa gipermatnlarni uzatish protokoli bo`lib, u tarmoq protokollari ichida eng sodda va qulay protokollardan xisoblanadi.

Uning asosiy vazifasi «giperbog`lanish»dan xosil bo`lgan URL manzilli elektron xujjatlarni o`qishga oid so`rov (zapro)ni serverga jo`natish (xuddi shu vaqtda so`ralayotgan xujjat joylashgan server bilan aloqa o`rnatiladi) va so`ralayotgan xujjat olib bo`lingandan so`ng server bilan aloqani uzishdan iborat.

HTML formatida tayyorlangan elektron xujjat HTML xujjat, web xujjat yoki web saxifa deb ataladi. Agar elektron xujjatni tayyorlash xaqida gap borsa, u xolda xujjat HTML xujjat deb ataladi, ushbu elektron xujjatni internetda e`lon qilish yoki tarqatish xaqida gap borsa, u xolda bunday elektron xujjat web saxifa deyiladi.

Yuqoridagi sohalar bo`yicha bilim olish va amaliyotda tadbqiq qilishda “Internet texnologiyalari” fani qo`l keladi.

Kursning vazifalari quyidagicha:

- talabalarda hozirgi zamon internet texnologiyalari bo`yicha bilim negizini paydo qilish.
- talabalarning hozirgi zamon internet texnologiyalari vositalarini va ularning ishlatilishini o`zlashtirish.
- ta`limiy texnologiyaning texnologik tuzilishini va xar hil namoyish materiallarini o`rganish, fanni o`rganish jarayonidagi talaba vazifasi.
- internet texnologiyalari rivojining o`rni va hozirgi zamon holatini bilish.
- hozirgi zamon shaxsiy kompyuterlarida grafikaning texnologik tuzilishini o`rganish.
- hozirgi zamon internet texnologiyalarini o`zining o`quv sohasida va professional faoliyatida foydalanishni bilish.
- internet texnologiyalarining texnikaviy vositalari va zamonaviy programmalari bilan doimiy ishlash.

1.2 O'quv jarayoniga internet texnologiyalari va internet tarmog'ini joriy etishning dolzarbligi

Internet bilan bog'lanish

Internet xizmatlarining ko'pchiligiga dostup (ruxsat, yo'l) adresatsiya sxemasi (URL) yordamida qiziktirilgan ixtiyoriy hujjatni topish imkoniyatini beradi. Har bir tur boshqasidan farq qiluvchi o'zining format adresiga ega.

Boshqa tomondan Intal kompaniyasining web-sahifasini yuklash uchun veb-brauzerning adreslar paneliga www.intal.uz ni yozishi kerak.

Shunday qilib URL bu – so'ralayotgan xujjatning aniq adresini ko'rsatish imkoniyatini berish uchun www.intal.uz kabi adreslar turlari kombinatsiyasi va yana ko'shimcha elementlarga ega. URL day foydalanib, veb-brauzerlar yordamida ixtiyoriy xujjat va xizmatlarga dostup olish mumkin. URL quyidagi tartibda yoziladi:

Protokol://internet_adres /yo'l /fayl_nomi.kengaytma yoki

Protokol://internet_adres

URL ga misol:

<http://www.microsoft.com/windows/index.html>


Bu yerda:

http://	–	protokol;
www.microsoft.com	–	internet_adres(Microsoft kompaniyasinnig web- serverinnig nomi)
/windows/	–	yo'l
index	–	fayl_nomi
html	–	kengaytma

URL da qo'llaniladigan protokollar ro'yxati:

Protokol nomi	Protokol nimaga dostup berishi mumkinligi
http://	HTTP (web) serverlariga
https://	Shifrlangan ba'zi bir HTTP (web) serverlarga
file://	Foydalanuvchi qattiq diskidagi fayllarga

ftp://	FTP server fayllariga
gopher://	Gopher menyu va fayllariga
news://	Usenet yangiliklar serverlari gruppasiga
news:	Aniq Usenet yangiliklar gruppasiga
mailto:	Aniq elektron pochta adresiga
telnet:	Telnet udalen serveriga



Oddiy telefon liniyasi orqali Internetga bog`lanish


Mobil telefon orqali Internetga bog`lanish

Internetga ulanish tartibi


Internet ulanishning eng ko`p tarqalgan ikki usuli mavjud:

Dial-up – telefon liniyasi orqali telefon raqamini terib ulanish


ADSL – telefon liniyasi orqali ma'lumotlarni tezkor uzatish (foydalanuvchiga <9 Mbit/s, undan 640kbit/s, masofa <5,5 km)



Уланish texnologiyasi bo`yicha abonentlar nisbati



Internetda ishlash texnologiyasi



Internet provayderlar


Windows muxitidagi matn muxarrirlari: Notepad, TextPad, UltraEdit, EdutPlus. Ko'rsatilgan hamma matn muharrirlari yordamida HTML kodlarni yozishda qo'llash mumkin.

Ko'pgina matn muharrirlarida HTML kodlarni hatto programmalashtirish tillarida kodlarni yozish juda qulay. Ba'zilar avtomatik ravishda operatorlar, funktsiyalarni tanish va ularni xar-xil ranglarda tasvirlash imkoniyatiga ega. Ba'zi matn muxarrirlarida HTML hujjatni web brauzerda sinab ko'rish tugmasi mavjud.

HTML xujjatni yaratishga mo'ljallangan maxsus programmalar (HTML muxarrirlar) ham mavjud: FrontPage, Adobe GoLive, Macromedia Dreamweaver, Nestcape Composer. Muharrirlar 2 turga bo'linadi:

- kod muxarrirlari;




WYSIWYG texnologiyasi (What You See Is What You Get – nimani ko'rsang o'shani olasan) asosida ishlaydigan muharrirlar. Bu muharrirlar yordamida foydalanuvchi HTML komandasi va elementlarini yozmaydi, oddiy matn muxarrirlaridek matn yozadi, tasvirlarni kerakli joyga joylashtiradi, formatini o'zgartiradi va x.k. xolos.



Internet xizmatlari

- Internet provayderlar quyidagi xizmatlarini taqdim etadi:
 - WWW Internet resurslarini tashkil etish
 - E-mail Elektron pochta xizmati
 - Web hosting SHaxsiy web saytlarni Internetga joylashtirish



- Internet conference Internet orqali video muloqot
- Searching Internet qidiruv tizimlaridan foydalanish
- FTP fayllarni almashish protokoli
- IPTV Internet tarmog`i orqali raqamli televideniya
- IP telefoniya Internet tarmog`i orqali telefon so`zlashuvlar



Web brauzerlar va web sahifalar

- Web brauzerlar – bu Internet resurslari va ma'lumotlaridan foydalanishni ta'minlovchi dasturlar bo'lib, ularning quyidagi turlari mavjud:
 - Internet Explorer, Firefox Mozilla, Netscape Navigator, Opera, Google Chrome, Safari
- Web sahifalar asosan o`zida ma'lumotlarni jamlovchi konteyner hisoblanib, ularning ikki turi mavjud:
 - Statik – o`zgarmas web sahifalar
 - Dinamik – murojatga nisbatan shakllantiriladigan web sahifalar

Web brauzerlar ko`rinishlari



1.3 " Internet texnologiyalari " fani orqali ta`lim portallarini yaratish

Web sahifalar va texnologiyalar

Statik web saytlar

- HTML, CSS, Java va VB script

Dinamik web saytlar

- HTML, CSS, PHP, MySQL, Java script, AJAX
- HTML, CSS, ASP, SQL Server, Java script

Web saytlar yaratish texnologiyalari


- MS FrontPage, Dreamviewer, HomeSite, Adobe Flash

WAP texnologiyasi


- WAP (wireless application protocol) – mobil telefonlar va qurilmalar orqali Internet ma'lumotlarini uzatish protokoli.
- WML (Wireless Markup Language) – simsiz qurilmalar uchun ma'lumotlarni joylashtirish tili.
- WAP brauzer – WAP saytlarga mobil qurilmalar orqali murojat qilish dasturi.

O`zbekiston milliy Internet resurslari

- www.uz – milliy axborot qidiruv tizimi
- mail.uz – milliy elektron pochta xizmati
- ziyonet.uz – axborot ta'lim tarmog'i
- uforum.uz – muhokama web portali
- edu.uz – O`zbekiston ta'lim portali
- aci.uz - O`zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi portali
- mtrk.uz – milliy teleradiokompaniya web sayti




Ziyonet portal



Milliy axborot qidiruv tizimi

Ushbu tizim orqali barcha turdagi axborotlarni qidirish va sohalar bo'yicha barcha saytlar reytingini ko'rish mumkin.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi portali



Ushbu fanni o'qitishda jixozlangan kompyuter sinflaridan , zamonaviy stendlardan, hamda maxsus lokal hisoblash tarmoqlaridan ko'rsatma qurol sifatida foydalanish ko'zda tutilgan. Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan to'liq foydalaniladi bular personal kompyuter (noutbuk, proektor, skaner), lokal tarmoq, Internet, e-mail, HTML, Internet Explorer, multimediya texnologiyasi aqliy xujum, muammo texnologiyasi va boshqalar.

Innovasiya (inglizcha innovation) - yangilik, kiritish, yangilik demakdir. Innovation texnologiyalar pedagogik jarayon xamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Pedagogik texnologiya - ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

“Interfaol metodlar”

Interfaol va interaktiv soʻzlari bir xil maʼnoda boʻlib, interaktiv soʻzi inglizcha “inter” – “birgalikdagi” va “act” – “harakatlanish” soʻzlaridan olingan. Interaktivlik birgalikda harakatlanish yoki suhbat, dialog rejimida nimadir (masalan, kompyuter) yoki kimdir (oʻqituvchi) bilan boʻlish demakdir. Bundan kelib chiqadiki, interaktiv taʼlim – avvalo dialogli taʼlim boʻlib uning davomida oʻqituvchi va oʻquvchi, oʻquvchi va kompyuter oʻzaro hamkorligi amalga oshiriladi.

Interfaol metodlar - oʻzaro fikr almashishga. oʻzaro fikrlarni toʻldirishga, goh noverbal, goho verbal taʼsir oʻtkazishga qaratil-gan harakatlar majmuasidir. Interfaol metodlarni qoʻllashda oʻzaro taʼsir asosiga qurilgan intellektual harakatlar shunchaki taʼsir yoki turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmaydi va hamkorlik sub-yektlarini ijodiy izlanishga yoʻnaltirish, nomaʼlum holatni ochishga (kashf etishga) koʻmakberuvchi nazariy-aqliy mulohazalarni yaratish funksiyalarini ham bajarishi mumkin. Taʼlim mazmunini oʻzlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, oʻzlashtirish darajasi, taʼlim manbai, didaktik vazifalarga muvofiq va munosib ravishda quyidagi interfaol metodlar qoʻllaniladi:

- oʻqitishning koʻrgazmali metodi;
- mustaqil ishlar metodi;
- muammoli-evristik modellashtirish metodi;
- ilmiy tadqiqot metodlari;
- oʻqitishning muammoh-izlanishli va reproduktiv metodlari;
- oʻqitishning induktiv va deduktiv metodlari;

Interfaol taʼlimning asosini interfaol metodlar asosida darsni olib borish tashkil etadi. Taʼlimning interfaol metodlari oʻquvchilarning ulkan taʼlimiy qudratidan foydalanish va faollashtirish, oʻquv jarayoniga musobaqa elementlarini kiritish imkonini beradi: taʼlim oluvchilar guruhining aqliy kuchi uning aʼzolari kuchi yigʻindisidan koʻproq (yaʼni guruh natijasi individual natijalar yigʻindisidan ortiq).

Oʻrganilayotganlarini oʻzlashtirishga daʼvat qilish metodlari.

Klaster.

Aqliy hujum.

B-B-B chizmasi.

Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi.

Blits-so'rov.

O'rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar

Eng asosiy tushunchalar, takrorlash.

T-chizma.

Toifalash jadvali.

Nima uchun? chizmasi.

“Qanday?” diagrammasi.

Venn diagrammasi.

O'n minutlik esse.

“O'n minutlik esse”.

Yozma topshiriqning ushbu turida talabalardan quyidagi ikki topshiriqni bajarish:

1.Mavzu: Internet texnologiyalari faniga kirish. Fanning maqsad va vazifalari
Internet texnologiyalarining qo'llanish sohasi hozirgi vaqtda juda ham keng bo'lib, ishlab chiqarishda jarayonlar web sayt ko'rinishdagi kompyuterli modellashtirishdan foydalanib amalga oshiriladi . Bundan tashqari internet texnologiyalari arxitektura va iqtisodiyot sohalarida ham keng qo'llaniladi.

“Aqliy xujum”

Maqsad: mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni ayni bir xil fikrlashdan xoli qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir.

Natija:Internet texnologiyalaridagi funksiyalar bo'yicha fikrlar bildirish xamma g'oyalarni yig'ish.

**II.BOB. INTERNET TEXNOLOGIYALARI FANIDAN “INTERNET
TARMOG`I ORQALI KO`RSATILADIGAN INTERAKTIV XIZMAT
TURLARI HAMDA INTERNET TARMOG`INING IMKONIYATLARI ”
MAVZUSINI O`QITISH METODIKASI**

2.1 O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

<i>Vaqt:2 soat</i>	<i>O`quvchilar soni:</i>
<i>O`quv mashg'ulotining shakli va turi</i>	Nazariy-yangi bilimlarni egallash buyicha o`quv amaliy mashg'ulot
<i>O`quv mashg'ulot rejasi</i>	JavaScript imkoniyatlaridan foydalanish.
<i>O'quv mashg'uloti maqsadi:</i>	“JavaScript” dasturidan foydalanib multimediali elektron sayt yaratish
<i>Pedagogik vazifalar:</i> •JavaScript haqida; Dasturdan foydalanish imkoniyatlari.	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> •Internet texnologiyalari haqida tushunchaga ega bo'ladilar; •JavaScript haqida gapirib beradilar; •Dasturdan foydalanish imkoniyatlari biladilar.
<i>Pedagogik texnologiyalar</i>	Muammo , 10 minutlik esse, eng asosiy.
<i>O'quv faoliyatini tashkil etish shakllari</i>	Amaliy mashg'ulot, yakka tartibda.
<i>O'qitish vositalari</i>	Yozuv taxtasi, slaydlar, proektor, kompyuter.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan auditoriya.
<i>Qaytar aloqaning usul va vositalari</i>	Kuzatish, tezkor- so'rov, aqliy hujum.

2.2. “Internet texnologiyalari” fanidan amaliy mashg’ulotni tashkil etish metodikasi

Davlat axborot resurslari

www.gov.uz - O`zbekiston Respublikasining Hukumat portali

www.press-service.uz – O`zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati

www.uza.uz – O`zbekiston milliy axborot agentligi

www.cbu.uz - O`zbekiston markaziy banki portali

Elektron pochta

- Elektron pochta - bu Internet tarmog`i orqali xabarlar almashish xizmati hisoblanib asosan ikkita komponent ishtirokida tashkil etiladi:
 - *Elektron pochta serveri* (SMTP, POP) - xabarlarni jo`natish va qabul qilishni ta`minlash
 - *Elektron pochta klienti* - xabarlarni yaratish, o`qish va javob qaytarish
- Elektron pochta xizmati quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:
 - Xabarlarni tezkor almashish (bir necha daqiqa)
 - Xabarlarga qo`shimcha ma`lumotlarni ilova qilish
 - Xabarlarga rasm va multimedia ma`lumotlarini joylashtirish



Elektron pochta orqali xabarlarni uzatish va qabul qilish

Elektron pochta manzili

Elektron pochta manzili: pochta qutisi nomi va pochta serveri manzilidan iborat bo`ladi

name@domain2.domain1



Internet domen tizimi

Internet domen nomlari Internet manzillarida ishlatilib, ular mamlakat nomlarini, tashkilot va korxonalar faoliyatini anglatadi

UZ - Uzbekistan

KG - Kyrgyzstan

KZ - Kazakhstan

RU - Russia

UA - Ukraine

UK - United Kingdom

US - United States

COM - Commercial

EDU - US Educational

GOV - Government


INT - International

MIL - US Military

NET - Network

www.gov.uz


Domen tizimi strukturasi



Domen nomlarini registratorlari

Kompaniyalar	«.uz» saytlari soni
Tomas	3778
Billur COM	2400
Arsenal-D	1299
Sarkor Telecom	930
BCC	659

Simus	113
TV-Inform	65
Jami	9416



Siyosat, iqtisodiyot, jamiyat, texnologiyalar, sport va xorijiy xabarlar jamlangan web resurs.

2.3 “Java Script” dasturida elektron saytlar yaratishning amaliy ko’nikmalarini ishlab chiqish va o’qitish metodikasi

JavaScript- bu Netscape firmasi tomonidan ishlab chiqilgan va skriptlar tuzish uchun mo’ljallangan yangi dasturlash tilidir. Siz uning yordamida interaktiv Web- saxifalar tuzishingiz mumknn.

HTmL-saxifada JavaScript ni joylashtirish

JavaScript skriptining kodi bevosita HTmL- saxifada joylashtiriladi. Bu qanday amalga oshirilish

```
<html>
```

```
<body>
```

```
<br>
```

Bu oddiy HTmL-xujjat.

```
<br>
```

```
<script language=«JavaScript">
```

```
document.write("Bu esa JavaScript!")
```

```
</script>
```

```
<br>
```

Ushbu joydan yana HTmL boshlanadi.

```
</body>
```

```
</html>
```

Birinchi qarashda yuqoridagi misol oddiy HTmL faylni yodga soladi. Bu erda bitta yangilik bu quyidagi konstruksiya:

```
<script language=«JavaScript">
```

```
document.write("Bu esa JavaScript!")
```

```
</script>
```


JavaScript da ob’ektlar ierarxiyasi.

JavaScript tilida barcha web-saxifadagi barcha elementlar ierarxik tuzilishda joylashtiriladi. Xar bir element ob’ekt sifatida namoyon bo’ladi. Va xar bir

shunday ob'ekt ma'lum xususiyat va uslub (metod)larga ega bo'ladi. O'z navbatida JavaScript tili sizga web-saxifadagi ob'ektlarni oson boshqarish imkonini beradi, lekin shu bilan birga HTML dagi o'ektlar ierarxiyasini tushunib olish juda muximdir. Bu qanday amalga oshirilishini siz quyidagi misoldan ko'rib olishingiz mumkin. Oddiy HTML saxifani ko'rib o'tamiz:

```
<html>
<head> </head>
<body bgcolor=#ffffff>
<center>
<img src=«home.gif" name=«pic1" width=200 height=100>
</center>
<p>
<form name=«myForm">
Name:
<input type=«text" name=«name" value=«"><br>
e-mail:
<input type=«text" name=«email" value=«"><br><br>
<input      type=«button"      value=«Push      me"      name=«myButton"
onClick=«alert('Yo')">
</form>
<p>
<center>
<img src=«ruler.gif" name=«pic4" width=300 height=15>
<p>
<a href=«http://rummelplatz.uni-mannheim.deG`~skochG`">my homepage</a>
</center>
</body>
</html>
```

bu esa ekranda quyidagini beradi:



XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonini tashkil etishda internet texnologiyalarining tutga o'rni beqiyosdir. Internet texnologiyalari orqali axborot texnologiyalarining o'qitish jarayoniga tatbiq etilishi, shubhasiz, ta'limni samarali tashkil etish usul va vositalaridan unumli foydalanilishiga imkon beradi.

Bugungi kunda ta'lim sohasini rivojlantirishda pedagogik xodimlar malakasini oshirishda ilg'or texnologiyalar hamda ta'lim vositalarini qo'llash bilan bog'liq qator muammolar mavjud. Axborotlashgan jamiyat endilikda o'qituvchiga talabalarning o'quv faoliyatini boshqaruvini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yangi shart-sharoitlarni yuzaga keltirdi. O'qitish jarayoni o'qituvchi va ta'lim oluvchining o'zaro hamkorligi tamoyillari asosida quriladi, buni takomillashtirish uchun zamonaviy pedagogik hamda axborot texnologiyalarini mukammal darajada egallash talab etiladi. Bundan tashqari zamonaviy axborot texnologiyalari o'qituvchiga qator muhim vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi – endi o'qituvchi nafaqat o'z mutaxassisligi yo'nalishida, balki mavjud o'qitish konsepsiyalari, metodika sohasidagi ilg'or yo'nalishlar, bilishning psixologik xususiyatlari, o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlarini bilishi lozim. Bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun esa malaka oshirish tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi, sohadagi ilg'or ta'lim metodlari va shakllarini tatbiq qilish borasida doimiy ravishda ish olib borilishini taqozo etadi.

Oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining malakasini oshirish an'anaviy tizimi pedagoglarning yangi axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'laligicha ta'minlay olmaydi, shu sababli ularning axborotga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashga qaratilgan elektron axborot-ta'lim muhitini yuzaga keltirish taqozo etilmoqda. Bunday muhitda pedagoglar masofaviy malaka oshirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Shunday qilib, pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish pedagogik ta'limning elektron axborot-ta'lim muhitini, integrallashgan axborot-ta'lim resurslarini yaratishni ta'lim sifatini oshiruvchi omil sifatida tadqiq etishni taqozo etadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.R.MaraxiMov, S. I. RaxMonqulova «Internet va undan foydalanish asoslari». Toshkent-2001.
2. M.Aripov. Internet va E-mailda ishlash, Universitet nashriyoti, 2000.
3. Microsoft FrontPage 2000. SHag za shagoM.M., EKOM,2000.
4. I.SHaposhnikov. Web - sayt svoiMi rukaMi. SPb.:BXV-Peterburg, 2000.
5. D. Kirsanov. Veb-dizayn. -SPb: SiMvol-Plyus,2001.
6. Uilton P. Java Script. Основы. SiMvol-plyus. 2002
7. www.ziyonet.uz
8. www.arxiv.referat.uz
9. www.tuit.uz
10. www.eduportal.uz